

**BADIY NUTQ VA TIL MUNOSABATI**

Xayrulla Ibragimov

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dotsenti

*Annotatsiya: Maqolada badiy nutq va tilning o'zaro munosabati, badiy nutqni tashkil etuvchi lingvistik birliklar, badiy matnni tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etishning nazariy asoslari tahlilga tortilgan.*

*Kalit so'zlar: Nutq, og'zaki nutq, yozma nutq, nutq uslublari, badiy nutq, nasriy nutq, she'riy nutq, she'riy til, xalq tili, adabiy til, lirik asar.*

**ХУДОЖЕСТВЕННАЯ РЕЧЬ И ЯЗЫКОВЫЕ ВЗАИМООТНОШЕНИЯ**

Хайрулла Ибрагимов

доцент Джизакского филиала Национального университета Узбекистана.

*Аннотация: В статье рассматриваются вопросы взаимодействия поэтической речи и народного языка, языковых единиц образующих поэтическую речь, научно-теоретические основы исследования художественного текста с точки зрения лингвистики.*

*Ключевые слова: речь, устная речь, письменная речь, стили речи, художественная речь, поэтическая речь, поэтический язык, народный язык, литературный язык, лирическое произведение.*

**ARTISTIC SPEECH AND LANGUAGE RELATIONSHIP**

Khayrulla Ibragimov

an associate professor of the Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan

*Annotation: The article deals with the interaction of poetic speech and the national language, the language units that form poetic speech, and the scientific and theoretical foundations of the study of a literary text from the view of linguistics.*

*Key words: speech, oral speech, written speech, speech styles, artistic speech, poetic speech, poetic language, folk language, literary language, lyrical work.*

Nutq yozma va og'zaki ifoda shakliga ega bo'lib, u co'zlashuv, badiiy, publitsistik, ilmiy va rasmiy uslublarni o'z ichiga oladi. Har bir nutq uslubi ma'lum maqsadni ifoda etishga xizmat qiladi.

She'riy til – murakkab, serqirra, serjilo, obrazli nutq. She'riy nutq – she'r tuzilishi - o'zgacha bir dunyo: she'r to'qimasida, birinchidan, nasriy va dramatik asarlardagidek, g'oya, obraz, konflikt, syujet, kompozitsiya, badiy til unsurlari mavjud bo'lsa, ikkinchidan, unda faqat she'r tuzilishiga xos bo'lgan unsurlar: musiqiylik, ohang, ritm, bo'g'in, turoq, bosh turoq, turkum, vazn, qofiya, band, ko'chimlar, figuralar, badiy san'atlar, fonetik usullar bo'lishi hamda she'riy nutqda A.Fitrat ta'biri bilan aytganda, «yurak sezgilarini ko'rsatadigan» ma'naviy-iloxyi kuch-ohangrabo, joziba bo'lishi shart.

Badiy nutq — badiy nutqning nasriy (sochma) va she'riy (tizma) tarzidagi ikki shaklidan biri bo'lib, tilning muayyan ichki o'lchamga solingan, ma'no ko'chishiga asoslangan, hissiyotga to'yingan alohida ko'rinishidir.

Filologiya fanining rivojlanish tarixida she'riy nutq (poetik til) muammosi tilshunoslik chegaralari doirasida o'rganilgan va rivojlantirilgan, keyinchalik u tilshunoslik chegaralaridan chiqib ketgan. Uzoq vaqt davomida tilshunoslар va adabiyotshunoslар o'zaro she'riy matnlarni o'rganish huquqi to'g'risida bahslashishgan va bunday matnlarni lingvistik yo'naltirilgan tadqiqotlar tilshunoslikning she'riy nutq muamolarini o'rganishga haqli degan tezisni asoslashdan boshlangan.

Hozirgi vaqtida ushbu sohadagi lingvistik tadqiqotlar namunasini isbotlangan deb hisoblash mumkin. Bundan tashqari, vaqt o'tishi bilan filologiya doirasida alohida yo'nalish paydo bo'ldi. Bu "she'riy asarlarni til prizmasi orqali ko'rib chiqish va she'riyatda dominant vazifani o'rganish" bilan shug'ullanadigan soha lingvistik poetika (poetik nutq nazariyasi)dir.

"Poetik lug'atda" poetika "adabiy asarlarning tarkibiy shakllari va yangi shakllar ta'siri ostida ushbu shakllarning o'zgarishi tarixiy qonuniyatlar" deb ta'riflanadi[1]. Rus poetikasining tug'ilishi va rivojlanishida ko'plab tilshunos va adabiyotshunoslар o'z hissalarini qo'shganlar. Bular: V.G. Admoni,

M.M. Baxtin, R.A. Budagov, V.V. Vinogradov, G.O. Vinokur, I.R. Galperin, L.Ya. Ginsburg, G.A. Gukovskiy, V.M. Jirmunskiy, A.N. Kojin, D.S. Lixachev, Yu.M. Lotman, A.A. Potebnya, V.Ya. Propp, T.P. Silman, B.V. Tomashevskiy, Yu.N. Tyulyanov, V.B. Shklovskiy, L.V. Щерба, B.M. Eyxenbaum, Ye.G. Etkind, P.O. Yakobson va boshqalar.

Hozirgi kunda tilshunoslik poetikasi ichki va xorijiy adabiy merosni tushunishda boy tajribaga ega. Biroq, she'riy nutq nazariyasida ko'plab muhim masalalar hali ham munozarali. Xususan, ko'p sonli asarlar bilan, poetik tilning umume'tirof etilgan va har tomonlama bahsli nazariyasi hali ishlab chiqilmagan, uning maqomi masalasi to'liq hal etilmagan va "poetik" so'zining o'zi, shuningdek, "poetik til"/ "poetik nutq" bugungi kunga qadar noma'lum tarkib bilan to'ldirilmoqda.

She'riy nutq she'rning yaratilishi uchun eng muhim birlamchi vosita bo'lib, kelib chiqishiga ko'ra nasriy nutqdan qadimiydir. U inson tamaddunining dastlabki paytida uzoq vaqtgacha badiiy nutqning yagona shakli bo'lgan. Chunki she'riy nutq qurilishidagi tartiblilik, musiqiylik, hissiylik, o'chovlilik uni kundalik qora so'zdan farqlagan, u orqali ifodalanayotgan axborotning san'atga tegishliligini ko'rsatib turgan.

Badiiy nutq – badiiy ijod vositasi va badiiy idrok predmeti sifatida nutq xususiyatlarining umumiyligi; ba'zan she'riy nutq oyat qonunlariga muvofiq tashkil etilgan san'atdir. Tor ma'noda she'riy nutq yoki "poetik til" so'zlashuv, frazeologiya va sintaksidan foydalanib, hozirgi zamongacha she'riyatning muayyan tiliga tegishli bo'lib, deyarli nutqning boshqa sohalarida qo'llanilmaydi, masalan, qadimgi Islandiya, klassik fors she'riyati va boshqalar.

Badiiy adabiyotda she'riy nutq va xalq tili bir butun holda namoyon bo'lsa, asar o'qishli, tushunarli hamda xalqona ruhga boy bo'ladi. Adabiy til va badiiy asar tilida xalq tilining muhim jihatlari umumlashadi. Shoир tilining individualligi mana shu mushtaraklikda namoyon bo'ladi.

Xalq tili bilan adabiy til qadimgi davrlardanoq farqlangan. Maqmud Koshg'ariy turkiy tillarni tekshirar ekan, dialektlar bilan adabiy til orasidagi farqni ko'rsatib berdi. Ularni chuqur tahlil qilib, ilmiy xulosalar chiqardi.

Adabiy til tarixan shakllangan, so'z ustalari tomonidan qayta ishlangan, sayqal berilgan, me'yoriy va jamiyatda kishi faoliyatining hamma sohalari bilan bog'langan badiiy-publisistik, ilmiy adabiyot tilidir. Boshqacha qilib aytganda, adabiy til barcha o'zbeklar uchun namuna bo'ladigan, umumxalq tilining eng yaxshi ifoda-imkoniyatlari mujassamlangan tildir[2].

Xalqning tili – bu ularning ma'naviy hayotidagi eng yaxshi narsa. Ona tili – zamondoshlarni, avlod va ajdodlarni birlashtiradigan vosita. Zamonaviy odam uchun insonlarni birlashtiradigan emas, ajratadigan narsalar muhimdek ko'rinadi. Ehtimol, shuning uchun bizning ko'pchilik zamondoshlarimiz ona tillariga unchalik e'tibor bermaydilar, lekin bilmaydilarki, til biz uchun havo va suv kabi zarurdir.

Ko'pincha biz atrof-muhit va tabiat ekologiyasi haqida gapiramiz. Inson yaratgan muhit esa tabiat emas, balki uning madaniyatidir. Hatto aytish mumkinki, zamonaviy insonning tabiatni ko'p jihatdan uning atrof-muhitiga, madaniyatiga bog'liq. Til esa madaniyatning ajralmas qismidir. Ona tili uni yo'q qiladigan, tahdid qiladigan har qanday narsadan himoya qilinishi lozim. Yangi bo'lib tuyulgan, hozirgina nutqda paydo bo'lgan tilning aksariyati, aslida, tilning o'zi kabi eskidir. Bizning tilimiz juda moslashuvchan bo'lib, so'z ustalari – yozuvchilar va filologlar unga ishlov berib, jozibali qilishgan.

Til hozirni va o'tmishni, kelajak avlodlarni bir butunga birlashtiradigan eng muhim, eng kuchli va eng boy vositadir. Til yo'qolsa, xalq ham yo'qoladi. Va aksincha, xalq o'z tilini ishlatgunicha yashaydi. Donishmandlarning aytishicha, xalqdan xamma narsasini olish mumkin, u barini qaytaradi, lekin uning tilini olib qo'ysangiz, u qaytarolmaydi.

Xalq tili – adabiy tildan farqli o'laroq, faqat og'zaki nutqda yoki xalq og'zaki ijodi asarlari sifatida ma'lum bo'lgan tirik tildir.

Ko'pincha, faqat bir-biriga yaqin yashaydigan xalqlar o'rtasidagi aloqa vositasi bo'lib, xalq tili hududiy yoki mahalliy lahjalarga bo'linib, nisbatan kichik hudud bilan chegaralangan. Bundan tashqari, kundalik hayot ehtiyojlariga xizmat qiladigan xalq tili adabiy tilga qaraganda umuman qashshoqdir.

Shu bilan birga, xalq tili dialektik parchalanish tendensiyasiga ega, adabiy, aksincha, tekislash, bir xillikni o'rnatish tendensiyasiga ega. Xalq tilini farqlashda geografik prinsip ustunlik qiladi: individual kasbiy yoki kundalik guruhlarning (dehqonlar, baliqchilar, ovchilar va boshqalar) tili o'rtasida har doim ma'lum bo'lgan farqlar mavjud, ammo bu farqlar alohida joylarning lahjalari o'rtasidagi farqlarga qaraganda kuchsizroq[7].

Rivojlangan har qanday til, shu jumladan, hozirgi o‘zbek tili ikki asosiy funksional turga: adabiy til va jonli so‘zlashuv tiliga bo‘linadi. Har bir muayyan tilning sohibi, tashuvchilari bo‘lgan elat (xalq) yoki millatning vakillari tomonidan jonli so‘zlashuv tīli bolalikdan boshlab egallanadi. Adabiy til, uning me’yorlari va qonuniyatları esa balog‘atga yetgan, kamolatga erishgan kishining shakllanishi jarayonida o‘rganib, o‘zlashtirib olinadi. Bunda, ayniqsa, oila va məktəb, olıy o‘quv yurti, adabiy tilni egallagan şaxslar, olimlar bilan yaqin aloqada bo‘lib turish va ular ko‘magida turli janrdagi adabiyotlarni o‘qish, o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Umumxalq tilining yuqori shakli hisoblangan ada-biy til aniq va muayyan bir tizimda har bir davrning tiliga xos me’yor, tartib-qoidalarni ifodalaydi. Milliy adabiy tilni, uning og‘zaki va yozma shakllarini aniqlashda eng muhim va asosiy belgi uning muayyan bir me’yorga, ya’ni aniq bir maromga, tartib-qoidalarga solingenligidir. Milliy tilgacha bo‘lgan davrdagi adabiy til bilan milliy adabiy til orasida muhim tafovutlar bo‘lishiga qaramay, normativlik adabiy til taraqqiyotining barcha davrlarida — milliy tillarning tashkil topish davrida ham, ayniqsa, milliy adabiy tillar to‘la shakllangan davrlarda ham — asosiy belgi bo‘lib qoladi. Adabiy til taraqqiyotining dastlabki davrlariga tegishli yodgorliklarni o‘rganish unda bir qator me’yorlar mavjudligini, eski me’yorlar yo‘qolib ketishi, yangi me’yorlar yuzaga kelishini, yangi va eski me’yorlarning muvoziy (parallel) holda qo‘llanganligini ko‘rsatadi. Demak, me’yor faqat tilning hozirgi holati, sinxroniya uchungina xarakterli bo‘lib qolmay, balki diaxroniyada ham vujudga keladi[3].

O‘zbek milliy tili jonli xalq tili va adabiy tilga bo‘linadi. Jonli xalq tili o‘z ichiga jargonlar, dialektlar va oddiy so‘zlashuv tilini qamrab olsa, adabiy til og‘zaki va yozma turga ajatiladi.

Badiiy uslubni she’riy, nasriy va dramatik nutq uslublariga, ularni yana o‘z navbatida janrlarga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Badiiy asar matnlarida har bir rivojlangan tilning ikki asosiy funksional ko‘rinishi — adabiy til va jonli xalq tilining dialektik birligi, o‘zaro uzviy bog‘liqligi ochiq namoyon bo‘ladi. Rus olimlari L. V. Shcherbak va V. V. Vinogradov[4] hamda A. I. Yefimov[5] ko‘rsatishlaricha, til taraqqiyotining ma’lum davrlariga xos adabiy til me’yorlarini badiiy asarlarning matnlarini tahlil qilish orqali belgilash mumkin.

XIII-XVI asrlarda eski o‘zbek tili uchun xarakterli bo‘lgan adabiy til me’yorlari turli davrlarda yashagan Xorazmiy, Durbek, Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy kabi shoirlarning asarlari tilini o‘rganish, lingistik tahlil qilish asosida aniqlanadi. O’sha davrlarda yaratilgan yodgorliklarning tili o‘z davri xalq tiliga, tushunishning yengilligi jihatidan hozirgi o‘zbek adabiy tiliga hamda jonli xalq tiliga ancha yaqin turadi.

Tilning xilma-xil birliklarini badiiy adabiyot asarlarda ishlatish hamma vaqt uslub jihatidai asoslangan bo‘ladi. Jumladan, yuqorida tilga olingan shoirlarning, ayniqsa Alisher Navoiyning asarlari XIV—XV asrlardagi eski o‘zbek adabiy tilining xususiyati, uning og‘zaki va yozma shakllari, shuningdek jon-li xalq tili hamda adabiy tilning og‘zaki shakli qanday ekanligi to‘g‘risida aniq tasavvur bera oladi. Yozuvchi yoki shoir o‘z asarlarda turli darajadagi til birliklarining ma’lum qolipga solingen, takomillashgan namunalarini, shakllarini ishlatadi. Shuning uchun til ifoda vositalarining normativligi, tartib-qoidalari badiiy asarlarda ko‘proq va aniqroq namoyon bo‘ladi. Demak, turli davrlarga tegishli badiiy asarlarning til xususiyatlarini o‘rganish o‘sha davr til tizimini tushunib olish imkonini beradi. Badiiy asar tilini o‘r ganish bu xil lingistik tekshirishlarning ikki jihatini bir-biri bilan bog‘laydi, uning ikki tomonini belgilash imkonini beradi, ya’ni badiiy asar matn-larida adabiy til me’yorlari hamda ma’lum darajada jonli xalq tilining xususiyatlari aks etganligi aniqlanadi.

Til hodisalarini to‘g‘ri va chuqur tushungan holda keng ilmiy tahlil qilish, hozirgi jonli xalq tili, so‘zlashuv nutqi xususiyatlari bilan adabiy tilning og‘zaki va yozma shakllari faktlarini qiyoslab o‘rganish natijalari o‘tmisidagi jonli xalq tilining ayrim xususiyatlarini bilib olishda ma’lum asos bo‘lishi mumkin. Yozma manbalar asosida o‘tgan asrlardagi jonli xalq tili, so‘zlashuv nutqi xususiyatlarini o‘rganishda tarixiy obidalarni, badiiy asarlarning matnlarini, ayniqsa, o‘z davriga xos nutq amaliyotini aks ettiruvchi asarlarni tanlash juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilshunos olim S.Karimov badiiy asarda til vositalarining qo‘llanishini qat’iy bir qolipga solib bo‘lmasligini, unda umumxalq tilidagi barcha elementlarning qo‘llanishida chegaranining yo‘qligini, xullas, badiiy matnda umumtil fondining birliklari uchrashi mumkinligini ta’kidlab o‘tgan[6].

Xulosa qilib aytganda, umumxalq tilining ko‘p unsurlaridan she’riy nutqda foydalanish mumkin. Masalan, dialektizm, varvarizm, vulgar, jargon so‘zlardan badiiy nutqda faol qo‘llanishini kuzatish mumkin. Xalq tilining bu muhim vositalaridan o‘z o‘rnida foydalanish ijodkorning mahoratini belgilaydi.

She’riy nutqda xalq tili unsurlari shoir yoki yozuvchining badiiy yondashuvi asosida individuallik kasb etishi mumkin. Ijodkor xalq tilida mavjud birlikka obraxli tafakkuri orqali yangicha yondashuv

асосида о‘зgartirish kiritishi, boyitishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Квятковский А.П. Поэтический словарь. – Москва: Советская Энциклопедия, 1966.
2. Алиев А., Содиков Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 52.
3. Будагов Р.А. Литературный язык и языковые стили. М., 1967 й. 5-бет.
4. Виноградов В. В. О языке художественной литературы. М., 1959; О теории художественной речи. М., 1971; Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М., 1963.
5. Ефимов А. И. Стилистика художественной речи. – М., 1961; О языке художественных произведений. – М., 1962.
6. Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарқанд, 2010. – 192 б.
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/poeticheskiy-yazyk-kak-obekt-lingvisticheskikh-issledovaniy>
8. <https://qomus.info/>
9. [https://works.doklad.ru/view/8OraVJq\\_LKY.html](https://works.doklad.ru/view/8OraVJq_LKY.html)
10. <https://uzfor.uz/>